

**“FUTUHUL G‘OYB” BA “HOSHIYA ALA-L-KASHSHOF” ASARLARINING
QIYOSIY TAHLILI**

Курбанов Содик Солиевич

Тошкент ислом институти Таҳфизул қуръон кафедраси ўқитувчиси

Аннотация: *Маҳмуд Замахшарий ўзининг сермахсул ҳаёти давомида олтмиш олтита йирик асарлар яратди. Улар тилишунослик, лугатишунослик, адабиётшунослик, халқ оғзаки ижоди, фалсафа, ислом тарихи, география бошқа фанларга оид асарлардир. Олим яратган асарларининг қупчилиги бизга қадар етиб келган, лекин номи маълум бўлиб, ҳозирча топилмаган асарлари ҳам талайгина.*

Калит сўзлар: *Замахшарий, Кашишоф, ҳошия, шарҳ, балогат ва фасоҳат, наҳв...*

Mahmud Zamaxshariyning “Kashshof” nomli tafsiriga bag‘ishlab yozilgan sharh va hoshiyalarning ichida Sa’duddin Mas’ud Taftazoniyning “Hoshiya ala-l-Kashshof” asari va Sharafuddin Husay ibn Abdulloh at-Tiybiyning “Futuhul g‘oyb fil kashfi an qina’ur royb” asarlari alohida ahamiyatga ega.

Beshichi hijriy asrdan boshlab esa tafsirlar mavzuiy yo‘nalishlarda yozila boshlandi. Qur’onni balog‘at va fasohat nuqtai-nazariga ko‘ra qilingan tafsirlarning eng avvalida shak-shubhasiz Alloma Mahmud az-Zamaxshariyning “Kashshof” asari turadi. Uning mag‘ribu-mashriqqa dong‘i ketgach, undan keyin kelgan mufassir olimlar unga turli jihatlarida sharh, hoshiya, ta’liq va muxtasarlar yozganlar²⁴. Manbalarda ta’kidlanishicha, uning bu asariga ellikdan ziyod sharh va hoshiyalar yozilgan. Imom Az-Zamaxshariyning aqidasi mo‘tazila bo‘lsa ham mazhabi hanafiy edi. Uni shuhrat qozonishida, nomi g‘arbu sharqqa yoyilishida “Al-Kashshof” tafsirini o‘rni benihoya kattadir. Az-Zamaxshariy yaratgan tafsiri boshqa tafsirlarda bo‘lmagan fazilatlari bilan ajralib turadi. Mufassir Qur’oni karimdagi balog‘at sirlari va uning o‘ta nozik e’jozlarini yaxshi bilardi. Undan muqaddam ko‘pchilik uddalay olmagan ishni u uddaladi. Az-Zamaxshariy keyin yashab o‘tgan Qur’onga bayoniy tafsir yozganlar undan juda ko‘p iqtibos qildilar. Ulardan ba’zilari uning darajasiga yetmagan bo‘lsalarda, taqlid qilib unga ergashib tafsir bitdilar. Lekin asliy va taqlidiy fikrlar orasidagi farq ochiq oydin ko‘rinib turardi.

Mahmud Zamaxshariyning “Kashshof” nomli tafsiriga bag‘ishlab yozilgan sharh va hoshiyalarning ichida Sa’duddin Mas’ud Taftazoniyning “Hoshiya ala-l-Kashshof” asari va Sharafuddin Husay ibn Abdulloh at-Tiybiyning “Futuhul g‘oyb fil kashfi an qina’ur royb” asarlari alohida ahamiyatga ega.

Sharq faylasuf olimlar hayoti borasidagi tabaqot va tarojim kitoblarining qaysi biri Sa’duddin Taftazoniy hayoti va ilmiy faoliyati borasida so‘zlagan bo‘lsa, barchasi

²⁴Mahmud az-Zamaxshariy. Al-Kashshof. – Bayrut: Dar al-ma’rifa, 2009. – 16. B.

uning Mahmud Zamaxshariyning “Kashshof” asariga yozgan hoshiyasi borasida to‘xtalib o‘tgan va u asar haqida yuqori baho bergan. Zero hoshiya olimning uzoq ilmiy izlanishlari natijasi bo‘lib, u umrining oxirilarida tafsir, balog‘at, nahv, mantiq va fiqhga bog‘liq qarashlari mukammallashgan bir davrda ta‘lif qilgan edi. Hoshiya Bayzoviy, Sibavayh, Ibn Hojib, Axfash, Kisoiy, Asma‘iy, Javhariy va boshqa katta olimlarning tafsir, lug‘at, balog‘at, sarf, va nahv borasidagi qarashlarini qamrab olishi va Taftazoninining “Kashshof” muallifi va uning fikrlarini tahqiq qilishi, tekshirishi, sharhlashi, e‘tiroz bildirishi, qo‘llab quvvatlashi va ba‘zi o‘rinlarda e‘tizoliy masalalarda, hamda qiroatlarga ta‘na keltirgan o‘rinlarida uning koyiganligi uning nechog‘lik ilmiy salohiyati qudratli ekanini bildiradi. Uning bu salohiyati “Kashshof” kabi qomusiy kitobni sharhlash, izohlash, e‘tiroz bildirish va tanqid qilishga undadi.

Olim kitobi muqaddimasida uni ta‘lif etishga undagan sabablarni quyidagicha keltiradi: “O‘tmishdagi ko‘pchilik fozil kishilar “Kashshof” asarini o‘rganishga yuzlandilar. Uning yashirin sirlaridagi to‘siqlarni ochish, nurlaridagi g‘ira-shiralikni ketkazishga e‘tiborni qaratdilar. Va o‘zi ham ularning halqalariga qo‘shilib, “Kashshof” yashirgan va berkitgan narsalarni ochish, bu yo‘lda azmu- qarorni mahkam qilish, keyin esa toliblarga o‘zi topgan xazinasini bo‘laklarini o‘lashish va topib olgan yashirin durlarini qiziquvchilar ustidan sochishdir²⁵. Muallifning yuqoridagi so‘zlaridan o‘zi ham o‘tmish olimlar yo‘lidan yurgani va Zamaxshariyning “Kashshof” asarini yashirin xazina va dengiz ostidagi sadaf ichiga berkitilgan durga o‘xshatganini va u har qancha qidirsam ham u tugamaydigan bebaho boylik ekanini mulohaza qilish mumkin.

Uning bu kitobni sharhlashda ko‘p qo‘llagan uslubi borasida muallifning muqaddimasidan kelib chiqib va kitobni mutolaa qilish jarayonidan quyidagilarni aytish mumkin:

“Kashshof” iborasidan maxfiy bo‘lgan, uning masala va hukmlarining nozik qirralarini ravshanlashtirish va talabalar topa olmayotgan sir-asrorlarini ochib berish;

U yuqoridagi maqsadiga erishishda ilm-ma‘rifat borasidagi barcha imkoniyatini ishga soladi va hech bir kishi qo‘lga kiritmagan narsani egallashga e‘tiborini kuchaytiradi. Natijada, shuncha qiyinchilik bilan qo‘lga kiritgan boyligini ulardan qizg‘onmaydi;

U kitobini ta‘lif etish asnosida tabiat va “zavqi salim” (adabiyotdan bahra olish)ga rioya etadi. Natijada quloqqa xush yoqadigan va tabiatga o‘rnashadigan iboralarni tanlab, eshitish qo‘pol bo‘lgan va mijozga o‘tirmaydigan laflarni tark etadi;

“Kashshof”ning qiyin iboralarni va nozik o‘rinlarini ochishda go‘zal va yuqori uslublardan foydalanadi. Bu har bir o‘quvchiga oydek ravshan taqdir va tahrirlarni keltirish bilan bo‘ladi. Bu bilan u “Kashshof”ga tanqid qiladiganlarga va uni qiyinchiligini sharhlashga kerishgan boshqa shorihlarga raddiyalar beradi;

Fikrlar va qarashlar turlicha bo‘lgan o‘rinlarda u dalili kuchliroq va Zamaxshariy iroda va qasd qilgan narsaga muvofiqrog‘ini ixtiyor qiladi. Ushbu yuqorida zikr etilgan

²⁵Sa‘duddin Taftazoniniy. Hoshiya ala-l-Kashshof. Abdulfattoh Iso al-Barbariy tahqiqi. Qohira

yoʻnalishlar bu kitob taʼlifida oʻzi uchun belgilab olgan usullar boʻlib, bu umumiy uslublar toifasiga kiradi. Shu oʻrinda yana bir mulohazani keltirib oʻtish oʻrinli. Uning “Kashshof”ni sharhlashi va unga taʼliq yozishi “Miftof” kitobi uchinchi qismini sharhlashda va Sayyid Sharif oʻzining “Miboh” kitobi taʼlifida qoʻllagan uslubini oʻzginasidir. U ham boʻlsa matndan bir kalima, bir yoki bin necha jumlani قوله (uning, yaʼni Zamaxshariyning mana bu soʻzi) deb keltirib, soʻng uni sharhlash, ravshanlashtirish va shu oʻringa bogʻliq narsalarga taʼliq yozishga kirishadi.

Birinchi navbatda “Kashshof” sohibini soʻzi va tafsirini keltirib, uning ortidan وفيه (chiroyliroq boʻlardi), والوجه (toʻgʻriroq boʻlardi), والاولى (yaxshiroq boʻlardi), فليتاامل (buni bir uni tadqiq qilib koʻrish lozim), وفيه نظر (uni oʻylab koʻrish kerak), (uni oʻylab koʻr) va shu kabi iboralarni keltiradi, keyin esa oʻzi uni لكن istidrok (toʻldiruvchi, tuzatuvchi) kalimasi va boshqa shu kabi jumla va kalimalar yordamida toʻgʻirlab, toʻdirib ketadi.

Saʼduddin Taftazoniy “Hoshiya ala-l-Kashshof”ni yozishdagi maqsadlaridan yana biri oldin muʼtazila²⁶ va karromiya²⁷ kabi firqalar bilan “Ahl as-sunna val-jamoa” orasidagi ixtilofli masalalarni Qurʼon va sunnat asosidadalillar keltirib bartaraf qilish, davr taqozosi bilan “Kashshof” asaridagi chigal soʻz va iborali gaplarni tushunarli, qisqa ravishda sharhlash va matnni Qurʼoni karim, sunnat hamda aqliy dalillar bilan quvvatlash boʻlganini kuzatish mumkin.

Yuqorida biz zikr qilib oʻtgan Saʼduddin Taftazoniyning asarini Sharafuddin Husay ibn Abdulloh at-Tiybiy (vaf. 743/1342)ning “Futuhul gʻoyb fil kashfi an qinaʼur royb” asariga bir necha jihatdan taqqoslash mumkin. U asar ham Mahmud Zamaxshariyning “Kashshof” tafsiriga yozilgan hoshilarning eng yuqori hajmlaridan boʻlib, u olti katta mujalladli asardir. Kitob muallifi aytadi: “Kitobni yozishdan avval tushimda paygʻambar s.a.vni koʻrdim. Menga bir idishda sut berib, menga ishora qildilar. Uni topdim (koʻrsatgan joylaridan ichdim) va uni Oʻzlariga uzatdim. U zot ham u joyni topdilar. Uni “Futuhul gʻoyb fil kashfi an qinaʼur royb”, (Gumon pardasini ochish borasida gʻaybiy futuhot) deb nomlayman²⁸. Olimning ushbu kitobi taʼlif qilishdagi yoʻnalishi yuqorida biz zikr qilib oʻtgan Taftazoniyning oʻz hoshiyasidagi

²⁶Muʼtazila arabcha – ajralib chiqqanlar, uzoqlashganlar degan maʼnoni bildiradi. VIII asr birinchi yarmi, Ummaviylar hukmronligi davrida vujudga kelgan islom dinidagi aqidaviy oqimlaridan biri. Asoschilari Vosil ibn Ato (80-130/699-748) va Amr ibn Ubayd (vaf. 145/762 y.) hisoblanadi. Ular gunohi kabira qilgan moʻmin kishi hukmi masalasida ustozlari Hasan al-Basriy (vaf. 109/728 y.) bilan ixtilofga borgan va maktabidan ajralib chiqqan.

²⁷Karromiylar IX-XIII asrlarda Bagʻdod xalifaliganing markaziy va sharqiy viloyatlarida tarqalgan aqidaviy oqim. Asoschisi Abu Abdulloh Muhammad ibn Karrom (190-255/806-869). Seyistonda tugʻilgan, Nishopur, Balx, Marv, Hirot kabi shaharlarda taʼlim olgan. Seyiston va Xurosonda oʻz taʼlimotini targʻib qilgani uchun zindonga tashlangan. Quddusda vafot etgan. Karromiyning fikricha xudo – butun borliqning birlamchi asosi, u muayyan jismga ega. Xudo – barcha narsalarning yaratuvchisi, ammo inson oʻz faoliyatining natijalariga taʼsir koʻrsata oladi. Muʼtaziliylar kabi Karromiylar ham inson ongi mustaqil ravishda, yaʼni vahiy yordamisiz, yaxshilik va yomonlikni farq qilishga qodir, deb uqtirdilar. Shuningdek, murjiʼiyalar singari Karromiy biror insonni musulmon deb tan olish uchun u “La ilaha illalloh” kalimasini til bilan eʼtirof etsa kifoya, dil bilan tasdiqlash va amallarni bajarish shart emas, deb hisoblaydi. Ibn Karromning “Kitob as-sirr” va “Azob al-qabr” nomli (bizgacha yetib kelmagan) asarlari va “xudo jismga ega” degan tushunchasi islom ulamolarining keskin tanqidi va taʼqibiga uchragan. Moʻgʻullar istilosidan soʻng Karromiylik barham topdi.

²⁸Mahmud az-Zamaxshariy. Al-Kashshof. I-VI jildlar. – Riyoz: Maktabatul abikan, 1998. – J I, B. 32-33.

uslub bilan deyarli kup jabhalarda bir xildir. Boshqacha qilib aytgan zamon e'tiboridan kelibchiqib, shuni aytish mumkinki, aynan Sa'duddin Taftazoniy Sharafuddin Abdullohning hoshiyasi uslubida yozgan va uni hoshiyasini talxis qilgan.

Sarlavhada qisqacha so'z yuritilgan asarning to'liq nomi: Futuhul-g'ayb fi (va'l) kashf an qinair-rayb (Sharhu/Hashiyat al-Kashshaf)dir. Muallifning Mishkot sharhi bilan birga eng mashhur asarlaridandir. Bu asar Zamahshariyning mashhur Kashshof asarining eng go'zal hoshiyalaridan hisoblanadi.²⁹

Imom Suyutiy, Tibiy bu sharhni Payg'ambarimiz (s.a.v.)ni tushida ko'rganlaridan keyin yozganini ta'kidlaydi.³⁰ Tibiyning ustozlari va talabalari bo'limida ham ko'rinib turibdiki, ustoz va talabalari ham hoshiya yozganlar. Bu xususiyat, bugungi kunda tadqiq qilinishi kerak bo'lgan muhim mavzulardan biridir.

Muallif bu asarida qiroat vajhlarini tilga olib, so'z ma'nosidagi nozik nuqtalarni diqqat bilan ko'rib, ayniqsa, bayon ilmiga oid juda ko'p o'rin ajratgan. U hatto bu uchun tanqid qilingan.³¹ Umar Nasuhiy Bilman asarga qilingan tanqidlar uning qiymatini kamaytirmasligini aytadi.³²

Tibiy asarlarini til va balog'at jihatidan o'rganib chiqqan olim Muhammad Rifat Zanjir alloma Tibiy Zamahshariy ta'siriga tushib qolganini ta'kidlaydi, Mishkat sharhi bo'lgan "Al-Kashif an haqaiqis sunan"ida ham "Kashshof"³³ning ta'siri borligini ta'kidlaydi.³⁴ Unga ko'ra, bu ta'sir faqat til bilan cheklanib, Tibiy uning qarashlaridan ta'sirlanmagan.³⁵

Al-Koshifning muhaqqiqlaridan bo'lgan Hindaviy kelajakda tilga olinadigan asarning ayrim qismlariga izohlar qo'yib, Tibiyning tanqid qilgan. U tanqid qilgan nuqtalardan biri sifatlarni izohlashda mutaziliy bo'lgan Zamahshariydan ta'sirlanganligi masalasidir. Hindaviy aytadi:

"Tibiy bu yerda Zamahshariydan naql qilib keltirgan ta'vilda undan ta'sirlangan. Zamahshariyning sifatlar borasidagi qarashi ahli sunna val jamoaning qarashiga ziddir..."³⁶

Tibiyning ushbu asari va o'sha davrdagi ta'siri haqida Ibn Xoldun quyidagilarni iytadi:

"Sharofiddin Tibiyning bir asari qo'limizga yetib keldi. Zamahshariyning Kashshof asarining sharhi bo'lgan ushbu asarda uning ifodalari takror-takror tilga olinadi. Mo'tazila mazhabining dalillari chippakka chiqariladi.

U Qur'on oyatlaridagi balog'at mo'tazilalar da'vo qilgan tarzda emas, balki ahli sunna val jamoa aytgan tarzda ekanligini bayon qiladi. Balog'at ilmini boshqa jihatlari

²⁹ Kâtib Çelebi, Keşfu'z-zunûn. I-jild, -B. 1478.

³⁰ Süyûtî, Buğye , s. 523. Bu rüyadan Keşfu'z-zunûn 'da da bahsedilmektedir. Bk.Çelebi, Keşfu'z-zunûn, II, 1478

³¹ Kâtib Çelebi, Keşfu'z-zunûn , II, 1478

³² Bilmen, Büyük Tefsir Tarihi , s. 371

³³ el-Keşşaf an hakâiki ğavamidi't-tenzil; el-Kâşif an hakâiki's-sünen

³⁴ Zencîr, el-Funûn ve'l-beyâniyye, s. 16

³⁵ Zencîr, el-Funûn ve'l-beyâniyye, s. 17

³⁶ Tibî, el- Kâşif , V, 552.

bilan birga, juda go‘zal uslubda bayon qiladi: “Har bir ilm egasi ustidan biluvchi bor³⁷”.³⁸

Umar Nasuhiy Bilman: “Tibiy hoshiyasisiz Kashshofni o‘qish joiz emas”, deb aytadi va quyidagi jummalarda bu qarashlarga rozi ekanligini ta’kidlaydi:

Chunki Tibiy ahli sunna val jamoa ulamosi bo‘lgani sababli “Kashshof”dagi mo‘tazilalarga oid masalalarni tekshiradi va tanqid qiladi. Iboralar o‘rtasida juda yopiq bo‘lgan Zamahshariy maqsadlarini topib, ularni ochib beradi.³⁹

Bu ish bo‘yicha qisqa, talhis turidagi tadqiqotlar qilingan.⁴⁰ Asar haqida so‘z yuritilishi lozim bo‘lgan bir narsa shuki, hoshiya ham “Kashshof” manbalari sirasiga kiradi. Ular Hindaviyning “Futuhul g‘ayb”, Tibiyning Zamahshariyning “Kashshof”iga hoshiyasidir. U o‘zidan keyingilar ko‘p naql qilgan eng buyuk va eng qadimgi hoshiyalardan biridir.⁴¹ Tibiy bu asarga o‘zgacha qarash bilan yondashgan. U “Futuhul g‘ayb”⁴² va “Sharhul Kashshof”⁴³ nomi bilan zikr qilgan bu asarga tez-tez keltirilgan bir masalani batafsil yoritib berish uchun murojaat qiladi. Ammo bu yerda muhim bo‘lgan narsa shuki, Tibiy bu ishga ikki xil nom ostida va unga mansubligini tasdiqlovchi manba sifatida ishora qiladi.

Az-Zamaxshariyning chuqur bilimi va fanning turli sohalariga oid o‘lmas asarlari hali u hayotlik paytidayoq butun musulmon mamlakatlarida unga betakror shuhrat keltirgan. Mashhur olimlar, shoirlar va adiblar davrasida u doimo peshvoldan biri bo‘lardir. Mana shu zayldagi ulkan obru-e’tibor va buyuk nom qoldirgan Az-Zamaxshariyning boy ilmiy va adabiy merosi sharqda ham, g‘arbda ham azaldan qadrlangan va o‘rganilgan, uning ko‘pgina asarlari esa bir necha horijiy tillarga tarjima qilingan.

Mahmud Zamaxshariyning “Kashshof” asariga yozilgan sharh va hoshiyalarni tahlil qilib ko‘rish natijasida shu ma’lum bo‘ladiki, unga sharh, hoshiya, ta’liq va muxtasarlar yozgan olimlarning ko‘pchiligi asosan ikki muhim bosh mavzuga e’tibor qaratganlar. Birinchisi tafsirning balog‘at va fasohat jihatlaridagi go‘zallik va nozikligini ochib berish; ikkinchisi esa mo‘taziliy qarashlarga raddiya o‘laroq yozilgan

³⁷ Yusuf surasi, 76-oyat.

³⁸ Ibn Haldun, Mukaddime, II, 616

³⁹ Bilmen, Büyük Tefsir Tarihi, s. 371

⁴⁰ Kâtib Çelebi, Keşfu’z-zunûn , II, 1478

⁴¹ Tibî, el-Kâşif , VIII, 2466

⁴² Bazı örnekler için bk. Tibî, el-Kâşif , II, 673, III, 1059, IV, 1194, 1213, 1375, V, 1634, 1718 VI, 1871, VII, 2350, VIII, 2466, X, 3258, XI, 3521, XII, 3948.

⁴³ Bazı örnekler için bk. Tibî, el-Kâşif , VI, 1853-54, X, 3291